

Ellikqal'a fakulteti 60110500 - "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-kurs (o'zbek guruhi) talabalari uchun "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fanidan 2025-2026-o'quv yili uchun tayyorlangan KN,ON,YN nazorat savollari

1. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining predmeti.
2. 10 ichida sonlarni nomerlashdan 100 ichida sonlarni nomerlashga o'tishda qanday metodik bosqichlarga amal qilinadi?
3. Boshlang'ich sinflarda miqdorlar tushunchasini shakllantirish qanday metodik bosqichlarda olib boriladi?
4. Boshlang'ich matematika o'qitish metodlarining turlari.
5. O'nliklar tushunchasini shakllantirish va o'quvchilarda o'nlik + birlik ko'rinishida tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
6. Miqdor va son tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish qanday o'rgatiladi?
7. Yuz va uning o'lchov birliklari tushunchalarini o'rgatish metodikasi.
8. 100 ichida sonlarni nomerlash jarayonida pozitsion sanoq tizimi mazmuni qanday izohlanadi?
9. Miqdorni o'lchash jarayonining mohiyati o'quvchilarga qanday izohlanadi?
10. Nomerlashni o'rganishning umumiy masalalari.
11. O'quvchilarni ikki xonali sonlarning tarkibi bilan tanishtirishda qanday ko'rgazmali vositalar samarali hisoblanadi?
12. Asosiy miqdorlar haqida tushuncha.
13. Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va uning turlari.
14. 10–100 oralig'idagi sonlar qatorini shakllantirishda chizma, sanoq chiziqlari va raqamli ko'rinishlarning o'rni qanday?
15. O'lchov birliklarini o'rgatishda ko'rgazmalilik tamoyili qanday qo'llaniladi?
16. Massa va hajm, ularning birliklari bilan tanishtirish metodikasi.
17. Ikki xonali sonlarni o'qish va yozishga o'rgatishda qanday metodik yondashuvlar qo'llaniladi?
18. O'quvchilarni bir xil miqdorlarni taqqoslashga o'rgatish uchun qanday metodlar qo'llaniladi?
19. O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, formalari vositalari orasidagi uzviylik.
20. O'nliklar va birliklar miqdorini aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar qanday ketma-ketlikda tashkil etiladi?
21. Miqdorlarni o'lchashga o'rgatish jarayonida amaliy mashg'ulotlar qanday ahamiyatga ega?
22. Nomerlash asosida matematika o'quv materialini joylashtirishning xususiyatlari.
23. 20, 30, 40 va hokazo o'nliklarni mustahkamlashda qanday o'yinlar yoki didaktik topshiriqlar eng samarali?
24. Uzunlik tushunchasi boshlang'ich sinflarda qanday shakllantiriladi?
25. Massa haqida tushuncha.
26. O'quvchilar ikki xonali sonlarni taqqoslashda nimalarga tayangan holda xulosa chiqaradi?
27. Santimetr, desimetr, metr kabl uzunlik birliklarini o'rgatishda qanday ko'rgazmali vositalar eng samarali?
28. Matematika o'qitishda kuzatish.
29. "Oldingi son", "keyingi son", "qo'shnilari" tushunchalarini 10–100 oraliqda qanday o'rgatiladi?
30. O'lchashga doir amaliy mashqlarni (masalan, buyumlarning uzunligini o'lchash) tashkil etish qanday metodik shartlarni talab qiladi?
31. Matematika to'garagi.
32. 100 ichidagi sonlar oralig'ida joylashuvni aniqlashga doir mashqlarni qanday tashkil qilish kerak?
33. Santimetr va desimetr orasidagi bog'lanish qanday o'rgatiladi?
34. Hajm o'lchov birliklari haqida tushuncha
35. 10–100 ichida sonlar qatori bo'yicha oraliq tahlil (masalan, 26 dan 35 gacha bo'lgan sonlar)ni o'rgatish qanday metodika asosida olib boriladi?
36. O'quvchilarni uzunlik birliklarini bir-biriga aylantirishga o'rgatish jarayoni qanday ketma-ketlikda olib boriladi?
37. Turli hil kontsentrlarda sonlarni nomerlash.
38. Interfaol metodlar (klaster, guruhlash, juftlikda ishlash va boshqalar) ikki xonali sonlarni o'rgatishda qanday qo'llanilishi mumkin?
39. Yuza tushunchasini shakllantirish uchun qanday ko'rgazmali yondashuvlar tavsiya etiladi?

40. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan ekanligi.

41. Sonlarning o'nliklar bo'yicha guruhlanishini o'rgatishda sanash predmetlaridan foydalanishning afzalliklari qanday?
42. Yuza o'lchov birliklari (cm^2 , dm^2 , m^2) mohiyati qanday izohlanadi?
43. Vaqt o'lchov jadvallari va asosiy vaqt bilan tanishtirish.
44. 1000 ichida sonlarni nomerlashga o'rgatishning asosiy metodik bosqichlari qanday belgilanadi?
45. Yuza birliklarining hosil bo'lishi (kvadratlarning hosil bo'lishi) qanday ko'rsatiladi?
46. Boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni, tuzilishi.
47. Uch xonali sonlarning tarkibi (yuzlik, o'nlik, birlik)ni tushuntirishda qaysi ko'rgazmali vositalar eng samarali hisoblanadi?
48. Yuza birliklarini o'zaro aylantirishga o'rgatishda qaysi metodik qoidalar muhim?
49. Suhbat metodi.
50. 1000 ichidagi sonlarning pozitsion yozuvi va pozitsion qiymatini tushuntirishda qanday o'qitish metodlari qo'llaniladi?
51. Yuza topishga doir amaliy mashqlarni tashkil etishda qaysi topshiriqlar samarali?
52. Vaqt birliklari bilan amallar bajarish.
53. Uch xonali sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish jarayoni qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
54. Kvadrat shaklini taqqoslash orqali yuza tushunchasini mustahkamlash qanday amalga oshiriladi?
55. Matematik konkurslar
56. 1000 ichida sonlarni taqqoslash va tartiblashda o'quvchilar qaysi mantiqiy asosga tayangan holda xulosa chiqaradi?
57. Yuza o'lchashga oid masalalarda o'quvchilar uchraydigan odatiy xatolar qaysilar va ularni bartaraf etish yo'llari qanday?
58. Boshlang'ich sinfda dars va o'qishning boshqa formalari
59. Uch xonali sonlar qatori bilan ishlash (oldingi, keyingi, qo'shni sonlar)ni o'rgatish qanday mashqlarni talab qiladi?
60. Yuza bilan uzunlik o'lchovlari orasidagi farqni o'quvchilarga qanday tushuntirish maqsadga muvofiq?
61. «O'nlik» mavzusida sonlarni nomerlash, tayyorgarlik davri.
62. Raqamlarning har bir o'rnini qiymatini anglashni shakllantirish uchun qanday didaktik materiallar qo'llanilishi kerak?
63. Massa tushunchasini shakllantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida qanday metodik bosqichlarda olib boriladi?
64. Bayon qilish metodi.
65. Ko'p xonali sonlarni o'rgatishdan avval 1000 ichidagi sonlar mavzusini mustahkamlashning ahamiyati nimada?
66. Gramm va kilogramm o'lchov birliklarining mazmunini tushuntirishda qaysi ko'rgazmali vositalar samarali hisoblanadi?
67. Oz komplektli maktablar haqida.
68. To'rt va undan ortiq xonali sonlarning tarkibini (minglik, yuzlik, o'nlik, birlik) tushuntirishda qanday metodik yondashuvlar qo'llaniladi?
69. Tarozidan foydalanib massa o'lchashga o'rgatish jarayoni qanday ketma-ketlikda tashkillashtiriladi?
70. «Yuzlik» ichida sonlarni nomerlash.
71. Ko'p xonali sonlarning o'rin qiymati tushunchasini shakllantirish uchun qanday ko'rgazmalar tavsiya etiladi?
72. O'quvchilarni massani taqqoslashga o'rgatishda qanday amaliy mashqlar qo'llaniladi?
73. Boshlang'ich sinflarda matematikadan darslar sistemasi.
74. Minglar sinfi va birliklar sinfi bo'yicha o'quvchilarda tasavvur hosil qilish qanday bosqichlarda olib boriladi?
75. Massa birliklarini ($\text{g} \leftrightarrow \text{kg}$) o'zaro aylantirish metodikasi qanday izohlanadi?
76. Mashq metodi.
77. Ko'p xonali sonlarni taqqoslashda algoritmik yondashuv qanday ishlab chiqiladi va o'quvchilarga qanday tushuntiriladi?
78. Massaga oid masalalar va amaliy topshiriqlarni yechish uchun qanday metodik vositalar qo'llaniladi?
79. «Minglik» mavzusida sonlarni nomerlash.
80. Og'zaki va yozma shaklda ko'p xonali sonlarni o'qishga o'rgatishda uchraydigan tipik xatolar qaysilar?

81. Hajm va sig'im tushunchalarini shakllantirish uchun qanday ko'rgazmali materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq?
82. Oz komplektli maktablarda ish xususiyatlari
83. Sonlarning yuzliklar, mingliklar bo'yicha guruhlanishini o'rgatish uchun qaysi amaliy mashg'ulotlar samarali?
84. Litrlar va millilitrlar birliklarini o'rgatishda o'qituvchi qanday amaliy ko'rsatmalarni qo'llaydi?
85. Matematika o'qitishida mustaqil ishlar.
86. Sonlar sinflari (birliklar sinfi, minglar sinfi, millionlar sinfi)ni o'rgatishda o'quvchilar uchun bosqichma-bosqich metodik ketma-ketlik qanday bo'lishi kerak?
87. Sig'imni o'lchash uchun maxsus idishlardan (litrlar o'lchov, chashka, bankalar) foydalanishning metodik ahamiyati qanday?
88. «Ko'p xonali sonlar» mavzusida sonlarni nomerlash
89. Ko'p xonali sonlarni nomerlashda multimedia, animatsiya va raqamli resurslar qanday qo'llanilishi mumkin?
90. Litrlar va millilitrlar o'rtasidagi bog'lanish qanday izohlanadi?
91. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" fani nimani o'rganadi?
92. Dasturlashtirilgan o'qitish
93. Hajmga doir amaliy mashqlar (idishlarni to'ldirish, solishtirish)ni qanday tashkil qilish kerak?
94. Matematika o'qitish metodikasi fani boshqa pedagogik fanlar bilan qanday bog'liq?
95. Oz komplektli maktablarda dars jadvali va matematika darsi.
96. O'quvchilarni hajm birliklarini bir-biriga aylantirishga o'rgatish qanday ketma-ketlikda olib boriladi?
97. Metodika fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
98. Asosiy miqdorlar haqida tushuncha.
99. Boshlang'ich sinf matematika kursida vaqt tushunchasining o'rni va ahamiyati nimada?
100. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning ahamiyati nimada?
101. O'quvchilarda natural son tushunchasini shakllantirish,
102. Vaqt o'lchov birliklari (sekund, minut, soat, sutka, hafta, oy, yil) o'rtasidagi bog'lanish qanday metodik ketma-ketlikda ochib beriladi?
103. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika darslarining tarbiyaviy ahamiyati qanday namoyon bo'ladi?
104. Uzunlik va uning o'lchov birliklari tushunchalarini o'rgatish metodikasi.
105. "Vaqt bilan tanishtirish" bosqichi qanday didaktik tamoyillarga asoslanadi?
106. Nomanfiy butun sonlar tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday bosqichlarda shakllantiriladi?
107. Matematik gazeta va viktorinalar.
108. O'qituvchi vaqt o'lchov birliklarini o'rgatishda ko'rsatmalilikning qaysi turlaridan samarali foydalanishi mumkin?
109. Nomanfiy butun sonlarni nomerlashda "son", "raqam", "raqamlar yordamida yozish" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi qanday izohlanadi?
110. Oz komplektli maktablarda o'qitish vositalaridan foydalanish.
111. Maktab dasturida 1–4-sinflar bo'yicha vaqt o'lchov birliklarini o'rgatish mazmuni qanday taqsimlangan?
112. Sonning tarkibi (o'nlik va birliklar)ni tushuntirishda ko'rgazmali vositalarning roli qanday?
113. Matematik olimpiadalar.
114. Soat maketi yordamida vaqtni o'rgatishning asosiy usullari nimalardan iborat?
115. Sonlarning o'rni (pozitsion) yozuvi mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga qanday kiritiladi?
116. Uzunlik va uning birliklari bilan tanishtirish metodikasi.
117. "Yarim soat", "chorak soat", "chorak kam", "chorak o'tganda" kabi tushunchalar qanday ketma-ketlikda o'rgatiladi?

Tuzuvchi:

G.A.Abdullaeva